
“Do'rmon” madaniyat markazi zamonaviy va ko'rkam tus olmoqda
Avval xabar berilganidek, Qo'shtepa tumanidagi “Do'rmon” madaniyat markazini
mukammal ta'mirlashga kirishildi.

Bugun tuman hokimi A.Abdullayev mazkur maskanda bo'lib, amalga oshirilayotgan
ta'mirlash-obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Hozirda binoning ichki va fasad qismida ta'mirlash ishlari olib borilib, pol qismi
yangilanmoqda, shuningdek, binoning tashqi maydoni asfaltlashtirish uchun
tayyorlanmoqda.

Muassasa binosini namunaviy loyiha asosida mukammal ta'mirlab, zamonaviy qiyofaga
keltirish, bu yerda faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar va badiiy to'garaklarga qatnovchi
yoshlarga qulay sharoitlar yaratish tadbirlari jadal davom etmoqda.





2024-09-23 15:57:06